

Majidova Zarnigor Mamadjanovna

Ingliz tili va adabiyoti kafedrasida o'qituvchisi

Buxoro davlat universiteti

Маждова Зарнигор Мамаджановна

преподаватель кафедры английского языка и литературы

Бухарский государственный университет

Majidova Z.M.

Teacher

Bukhara State University

**E. HEMINGUEY IJODIDA ZAMON
QARAMA-QARSHILIKLARINING TASVIRLANISHI
ОПИСАНИЯ ПРОТИВОПОЛОЖНОСТЕЙ ВРЕМЕНИ
В ТВОРЧЕСТВЕ Э.ХЕМИНГУЭЯ
DESCRIPTIONS OF TIME'S CONTRAST
IN THE WORKS OF E. HEMINGWAY**

Annotatsiya. *E. Heminguey asarlarida zamon qarama-qarshiliklarining aks etishi o'rganildi.*

Kalit so'zlar: *zamon qarama-qarshiliklari, E. Heminguey, mahv bo'lgan avlod.*

Аннотация. *Исследованы описания противоположностей времени в творчестве Э. Хемингуэя.*

Ключевые слова: *противоположности времени, Э. Хемингуэй, потерянное поколение.*

Summary. *Description of time's contrast in the works of E. Heminguey were investigated.*

Key words: *contrast of time, E. Hemingway, lost generation.*

Amerikalik yozuvchi, jurnalist Ernest Heminguey nomini eshitmagan odam kam topilsa kerak. Amerika adabiyotida o'ziga yarasha iz qoldirgan, Birinchi jahon urushida qatnashgan yozuvchi 1920-yillarda Parij muhojirlar jamiyati a'zosi bo'lgan, 1953 yilda Pulitser, 1954-yilda "Chol va dengiz" asari va adabiyotdagi xizmatlari uchun Nobel mukofotiga loyiq deb topilgan.

Yozuvchi ijodi davr bilan, o'sha davrning ma'naviy muammolari bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Ernest Heminguey (Ernest Hemingway, 1899–1961) ijodida ushbu bog'liqlik to'g'ridan-to'g'ri namoyon bo'lgan. Yozuvchi ijodini haqiqiy inson biografiyasidan ajratib bo'lmaydi albatta. Garchi ushbu biografiya kitobxon ko'z o'ngida badiiy jihatdan qayta anglangan va san'atkorona o'zgartirilgan bo'lsa ham. Heminguey o'z hayotining oddiy solnomachisi yoki tarixnavisi emasdi. U yaxshi bilgan, o'z ko'zi bilan ko'rgan, boshidan kechirgan voqealar haqida yozgan. Shaxsiy hayot tajribasi esa u qurayotgan ijod qasrining poydevori bo'lib xizmat qilgan edi, xolos.

O'tgan asrning 20-yillari boshlarida Heminguey boshidan turli siyosiy va iqtisodiy qiyinchiliklarni ke-

chirayotgan boshqa Yevropa davlatlariga sayohat qilib turadi. Fashizm davlat tepasiga kelgan Italiya, Antanta tomonidan zuravonlik bilan mustamlaka qilingan Rur shular jumlasidandir. Heminguey tomonidan usha davrda yozilgan gazeta xabarlarini mustahkamlab borayotgan XX asr yozuvchisining iste'dodidan dalolat berib, uning o'z zamonasi fojealarini chuqur his qilishi, xalq tashvishlari va baxtsizligini o'z baxtsizligi deya bilishini ko'rsatadi.

20-yillarning o'rtalariga kelib Heminguey Parijda Gertruda Stayn atrofida birlashgan bir guruh yozuvchilar orasida shuhrat topadi. Amerika adabiyotshunoslari mazkur yozuvchi va tanqidchi ayolning AQSh adabiyoti rivoji, ayniqsa, Heminguey ijodiga o'tkazgan ta'siri xususida mubolag'a bilan gapiradilar.

Katta adabiyot maydoniga Heminguey o'tgan asrning 20-yillari ikkinchi yarmida kirib keldi. Shu davrda uning "Zamonamizda" (1924) nomli hikoyalar to'plami, "Quyosh chiqadi" yoki inglizcha nashrlarda "Fiesta" (1926) nomi bilan mashhur bo'lgan ilk romani hamda "Alvido, qurol!" (1929) kabi asarlari dunyo yuzini ko'radi. Bu romanlar Hemingueyning "Lost Generation", ya'ni, "mahv

bo'lgan avlod" [3, 39] ning ko'zga tashlangan ijodkorlaridan biri sifatida adabiyot tarixi zarvaraqlarida iz qoldirishiga sabab bo'ldi.

"Lost Generation"! Bu tushuncha bilan XX asrning 20-yillarida qalam tebratgan ko'pchilik adiblarning ijodlari bog'lik. Jumladan Jon Dos-Passosaning "Uch askar" (1921), E.M. Remarkning "Janubiy frontda o'zgarish yo'q" (1929), R. Oldingtonning "Qahramonning o'limi" (1929) va boshqa asarlar turli uslublarda bir shavqatsiz va achinarli mavzuni takrorlardilar — I jahon urushi maydonlarida beayyov otib o'ldirilgan yoshlarning ayanchli taqdiri hech kimni bee'tibor qoldirmasdi. Urush tugaganidan so'ng vataniga sog'-omon qaytganlar oldingidan-da ko'proq g'azablanardilar. Bu g'azabning sababi endilikda ular urush davrida insoniyat tomonidan keltirilgan qurbonlarning ulkan va bebaho bo'lganiga yana bir karra ishonch hosil qilganliklarida. Bu qurbonlar hisobidan esa urushdan so'ng o'z g'alabasini nishonlayotgan qonxo'rlar boyib ketishdi. "Mahv bo'lgan avlod" vakillari imperialistik urushni ochiq fosh etishar hamda uning xalqdan yashirinmasligi tarafdorlari edilar. Bu yo'nalish yozuvchilari millionlab odamlarni o'linga yuborganlarni ham, bu janglar hisobidan boylik ortirgan barcha imperialistik davlatlar xalqlarini ham ayblaydilar va tanqid qiladilar. Ammo "mahv bo'lgan avlod" vakillari urushni to'xtatish mumkin bo'lgan biror chorani ko'rolmas, unga qarshi kurashga ishonmas, xalq ahvolining mudhish va og'irligini ta'kidlab — kelajakda yer yuzida sodir bulajak ofatlarning oldini olib bo'lmasligini va yangi "mahv bo'lgan avlod" larning paydo bo'lishi muqarrarligi to'g'risidagi g'amgin falsafani bayon etardilar.

"Quyosh chiqadi" romanida amerika va yevropalik sayyohlar uchun yot hamda qadim zamonlardan ispan xalqiga xos bo'lgan go'zal madaniyat, bayramona kayfiyat uyg'unligini tarannum ettuvchi parchalar ko'p. Mazkur epizodlar Parij shahri qovoqxonolari, yengiltak ayollari, dunyoning turli burchaklaridan ko'chib o'tib, parijsliklarga qorishib ketgan tanbal hamda eng quyi tabaqa vakillaridan bo'lgan kelgindilar to'g'risidagi tasvirlar bilan qarama-qarshilikda aks ettirilgan. Shularning o'zi "Fiesta" ni o'tkir hissiyotga boy va shu bilan birga o'ta g'amnok, urushdan keyingi achchiq hayot haqiqatlarini bayon etuvchi asarlardan biri deyishimiz uchun yetarli.

Ammo eng asosiysi kitobda ajoyib tarzda tasvirlangan bu zamon qarama-qarshiliklari emas, balki o'z obrazida janglarda millionlab halok bo'lganlar hamda bir umrga nogironlik tamg'asini o'zi bilan olib qaytgan urush qatnashchilari kechinmalarini mujassam ettiruvchi Jeyms Barns taqdiri orqali hayotning yanada chuqur va teran taqqos etilishidir.

Jismoniy nuqson orqasidan ruhiy zaiflik kelib chiqadi: Jeyms Barns o'zligini yo'qotadi, uning ichki dunyosi butunlay bo'shab qoladi. U "mahv bo'lgan avlod"ning

eng tragik qahramonlaridan biridir. U yashaydi, ichadi, chekadi, kuladi — ammo ruhan bu dunyoni u allaqachon tark etgan; hayot unga faqat mashaqqat keltiradi. Dunyoning oddiy va tabiiy xursandchiliklari uni toliqtiradi. "Mahv bo'lgan avlod" tomonidan yaratilgan biror asarda hali urushda yo'qotilgan qurbonlarni qaytarib bo'lmasligi, u yetkazgan shikastlarning bedavo ekanligi bu darajada yuksak tasvirlanmagan bo'lsa kerak. Urushdan keyingi Yevropaning befarovon turmushi, bu beayyov dunyoda yashab qolish ilinjida bo'lgan omon qolganlar iztirobi "Fiesta" ("Quyosh chiqadi") da his etiladi. Bu dahshatli voqealarga qaramasdan quyosh bu g'amgin va nochor dunyo ustida chiqaveradi.

Barnsning tavbasi "idrok oqimi" ("поток сознания" [4, 443]) deb nomlashga odat bo'lgan yangi yozuv uslubi-da ifodalangan. Heminguey bu uslubdan o'z qahramonining ichki dunyosini ochib berishda, uning og'ir kasallik holatini, hayot bilan kelishmovchiliklari sababi kabi qator muammolarini yoritishda realistik vosita sifatida foydalandi. Bular bilan bir qatorda Heminguey "Fiesta" da o'zining matnosti — ya'ni — oddiy nutq, sukunat yoki qalbni ezuvchi iboralar ortida asl ijodiy, ba'zan esa dahshatli yoki yovuz o'y-xayollari yashiringan qahramonlar fikrini kitobxonga oshkora etish san'atini yanada o'z maromiga yetkazadi. "Fiesta" da chuqur psixologik voqelikni tasvir etuvchi mahorat obrazlarning jonliligi bilan birgalikda uyg'unlashgan. Bu o'rinda shuni ko'rsatish mumkin-ki, raqsga tushib o'yin-kulgi qilayotgan, yashash uchun cheksiz kuchga ega bo'lgan xalq, ularning bayramona kayfiyatini chetdan kuzatib turgan Barns, Brett, Kon va boshqa inglizlar oldida qalbida insoniylik hissini yo'qotgan kishilarga o'xshardilar.

"Fiesta" ning grek-turk epopeyasi to'g'risidagi turli parchalarida yaqqol yoritilgan xalqning shodiyona kayfiyati mavzusi, "Alvido, qurol!" romanida keng jang maydonlarida tinchlik uchun kurashayotgan, tinka-madori qurigan, ammo hanuz darg'azab, qarshilik kuchi o'sib borayotgan ko'plab askarlar obrazlari bilan qarama-qarshilikda ifodalangan. "Fiesta" dagi Jeyms Barns obrazi hech nimaga qaramasdan o'zini yakkalanib qolgandek his etsa-da, "Alvido, qurol!" ning bosh qahramoni leytenant Genri askarlar orasida o'zini yolg'iz his etmaydi.

Ernest Hemingueyning o'ziga xos bo'lgan adabiy uslubning maqsadi "eng kamlar orasidan, eng yaxshisini olishdir". Ayni shu lavhaning o'zi ham bizga Xemingueyning gaplari qanchalik qisqa va oddiyligini, soddaligini ko'rsatadi. Uning uslubiga xos bo'lgan yana bir jihat shuki u faqat nodir sifalardangina foydalana-di; ba'zan u o'z mavzusini ta'kidlash uchun kalit iboralar takroridan yoki leytmotiv ba'adiy illyuziyalardan samarali foydalanadi, asar tilining ta'sirdor bo'lishi esa unga yana qo'l keladi. Ernest Heminguey asarlaridagi qahramonlarning, obrazlarning xususiyatlarni ochib berish

uchun ma'lum bir darajada ta'sirchanlikka amal qilindi. Til ta'sirchanligining maqsadi, obrazlarning, xarakterlarning matonatini ko'rsatish, asar qaramonlari hayotining turli baland-pastliklarini, og'ir va fojeali kunlarni ham sabot bilan yengib o'tish xususiyatlarini ochib berishdir. Bu turdagi matonat, sabr-toqat, qiyinchiliklarni mardonavor yengib o'tish Heminguey yaratgan aksariyat asarlarning bosh mavzusidir.

Heminguey o'zining dastlabki faoliyatida jamiyatga ishonmay qo'ygan odamlarning taqdiri haqida so'z yuritdi. Uning ilk asarlarida jamiyatdan ajralib qolga inson obrazi ilgari surilgan va urush hamda urushning fojeaviy oqibati ta'sirida insonlar bir-birlariga mehrsiz, bir-birlaridan ko'ngillari sovib borayotganligi yorqin misollarda aks ettirilgan.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Hemingway E. — A Farewell To Arms. — New York: Scribner's. — ISBN0-684-83788-9.
2. Tarjima san'ati. — Maqolalar to'plami. — T.: "Adabiyot va san'at". — 1973 y.
3. Solih M. Ernest Heminguey tavvaludining 85 yilligiga // Iqror. — 1979. — № 15.
4. Самарин Р. Зарубежная литература. — М.: "Высшая школа", 1978. — 433 с.